

HOMILADORLIKNING ERTA MUDDATLARIDA LEYOMIOMANING KLINIK KECHISHI VA ASORATLARINI BASHORATLASH

Haydarova Nigora Bahodirovna

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich doktoranti Buxoro, O'zbekiston

Narzulloeva Nargiza Sayfulloevna

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti №1 Akusherlik va ginekologiya kafedrasida PhD,
dotsenti Buxoro, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15704140>

Kalit so'zlar: bachadon leyomiomasi, antigen, polimorfizm, immun kompleks.

Mavzuning dolzarbligi:

Bachadon leyomiomasi ayollar reproduktiv sistemasining eng keng tarqalgan yaxshi sifatli o'smalaridan biri bo'lib, 30 yoshdan oshgan ayollarning 15-20 foizida va 40 yoshdan oshgan ayollarning 40 foizida aniqlanadi. Oxirgi paytlarda reproduktiv funksiyaga hali erishmagan 30 yoshgacha bo'lgan yosh ayollarda ham bachadon leyomiomasi aniqlanishi holatlari ko'payib bormoqda.

Bachadon leyomiomasi- bachadon mushak qavati hujayralarining anomal bo'linishi tufayli rivojlanadigan yaxshi sifatli gormonga bog'liq o'sma. Odatda, leyomioma hosil bo'lish jarayoni asta-sekin sodir bo'ladi ya'ni, bitta mushak hujayrasi nazoratsiz bo'linishni boshlaydi va asta-sekin hujayralar soni ko'payib, organ devorida miomatoz tugunlar paydo bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi

Bachadon leyomiomasi mavjud bo'lgan erta muddatdagi homilador ayollarda genetik omillar ta'sirida rivojlanadigan erta va kechgi akusherlik asoratlarini bashoratlash.

Tadqiqot materiali va usullari

Material sifatida 2020-2024 yillarda Buxoro shahar tug'ruq kompleksi nazoratida bo'lgan bachadon leyomiomasi mavjud bo'lgan 71 nafar homilador ayollar kasallik tarixining retrospektiv tahlili hamda 30 nafar sog'lom ayollar olindi.

Tadqiqotda umumklinik, gormonal, immunologik, molekulyar-genetik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiq qilinayotgan va nazorat guruhlarida MDR1 geni S1236T polimorfizmi genotiplarini taqqoslashda MDR1 genining S/T va T/T funksional salbiy genotiplari bachadon leyomiomasining rivojlanishida xavfli omil sifatida ahamiyatli deb topildi ($\chi^2 = 4.75$; $p = 0.029$; OR = 2.3; 95% CI: 1.09-4.85 va $\chi^2 = 5.1$; $p = 0.023$; OR = 2.5; 95% CI: 1.14-5.47, mos ravishda).

Bachadon leyomiomali bemorlarning I va II kichik guruhlarini nazorat guruhidagi bemorlar bilan va o'zaro taqqoslashda MDR1 geni S1236T polimorfizmining salbiy getero- va gomezogot genotiplari taqsimotida statistik jihatdan muhim farqlandi ($\chi^2 > 3.84$; $p < 0.05$). Ilk bor bachadon leyomiomasi mavjud bo'lgan homilador ayollarda salbiy genotip C1236T uchraganda organizmda rezistentlik shakllanishi aniqlandi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bachadon leyomiomasiga ega bo'lgan homilador ayollar orasida erta va kechgi akusherlik asoratlari rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi. Ushbu holatga genetik omillar muhim rol o'ynaydi. Leyomioma mavjudligi fonida homiladorlikning erta bosqichlarida homila tushishi, homila rivojining to'xtab qolishi kabi

holatlar, kech bosqichlarda esa erta tug'ruq, platsenta yetishmovchiligi, ko'p qon ketish, kesar kesish zaruriyati kabi asoratlar kuzatilishi mumkin.

Genetik omillar, jumladan, kollagen sintezining buzilishi, gormonal disbalansga moyillik, hujayra o'sishini boshqaruvchi genlarda o'zgarishlar ushbu asoratlarning yuzaga kelishiga hissa qo'shadi. Shu bois, bachadon leyomiomasi aniqlangan homilador ayollarni erta aniqlash, genetik tekshiruvlardan o'tkazish va individual kuzatuv asosida yuritish akusherlik amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narzullaeva, N. S., Musakhodzhaeva, D. A., Abdurakhmanov, M. M., & Ikhtiyarova, G. A. (2019). CYTOKINE DYNAMICS AS A RESULT OF PHYTO-FLAVANOID EXPOSURE IN WOMEN WITH UTERINE MYOMA. Russian Journal Of Immunology, 22(2-1), 435-437. doi: 10.31857/S102872210006922-9
2. Narzullaeva, N. S. (2021). Gynecological and somatic history of women with uterine myoma according to retrospective analysis. *Акуш., гинекол., перинатол*, (2), 86.
3. Song H., Lu D., Navaratnam K. et al. Aromatase inhibitors for uterine fibroids // Cochrane Database Syst Rev. - 2013. - Vol. 10:CD009505.
4. Исанбаева Л.М. Особенности гормонального лечения миомы матки у женщин с диффузным нетоксическим зобом // Актуальные проблемы медицины. Ташкент.-2001.- №2.-С.57-59.
5. Щербакова Л.А. Клинико-морфологические аспекты субмукозной миомы матки у женщин репродуктивного возраста // Российский вестник акушера-гинеколога. – 2012. – Т. 12, №1. – С. 24-28.